

ALISHER NAVOIYNING “NAZM UL – JAVOHIR” ASARIDA CHAHORYORLAR HAYOT YO‘LLARI TAVSIFI

Bekova Nazzora Jo‘rayevna¹, Karimova Zarina Muxtorjon qizi²

Buxoro davlat universiteti professori, filologiya fanlari doktori¹

Buxoro Xalqaro universiteti magistranti²

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15230687>

Annotatsiya. Alisher Navoiy merosi nafaqat adabiyot va tilshunoslik nuqtai nazaridan qimmatli, balki u tarbiya masalalarini chuqur yoritgani bilan ham muhim ahamiyatga ega. Navoiy asarlarida insonning kamol topishi, axloqiy fazilatlari, bilim olishi, hunar egallashi va jamiyatga foydali bo‘lishi kabi tarbiyaviy jihatlar o‘z aksini topgan. Navoiy o‘z asarlarida ilm-ma‘rifatga muhabbatni ilgari suradi. U bilim olishni inson kamolotining asosi deb biladi. O‘z dostonlarida Navoiy ilmning ahamiyatini, olimlarning jamiyatdagi o‘rnini yuqori baholaydi. Bilim olish nafsoniy istaklarni jilovlashga, insonni adolatli va dono bo‘lishga undashini ta’kidlaydi.

Insoniy fazilatlar sifatida yaxshilik, adolat, saxovat, muruvvat, kamtarlik kabi axloqiy xislatlarni ulug‘laydi. O‘z asarlarida insonlar o‘rtasidagi munosabatlar va axloqiy masalalar yoritilgan. Shuningdek, Navoiy har bir inson o‘ziga mos hunar egallashi zarurligini ta’kidlaydi. Hunar insonni mustaqil qiladi, jamiyatga foyda keltiradi va moddiy ta’minotini yaxshilaydi.

"Nazmul Javohir" asarida mehnatsevarlik, halollik, vijdonlilik kabi insoniy fazilatlar tarannum etiladi. Mehnat insonni kamolga yetkazadi, unga ma’naviy quvonch beradi va jamiyatning rivojlanishiga hissa qo‘shadi. Navoiy o‘z vatanini sevishtigina, uning ravnaqi uchun mehnat qilishga chaqiradi. U o‘z asarlarida ona tiliga muhabbatni, o‘z xalqining madaniyati va an‘analarini qadrlashni targ‘ib etadi.

Navoiy kibr, manmanlik, hasad, g‘azab, yolg‘on, xiyonat kabi yomon illatlardan saqlanishga chaqiradi. Ushbu illatlar insonni ma’naviy qashshoqlikka olib keladi va jamiyatning buzilishiga sabab bo‘lishini e’tirof etadi.

Alisher Navoiy asarlarida tarbiya masalalari inson kamolotining muhim jihatlari sifatida yoritilgan. Navoiyning axloqiy qarashlari, jamiyatga munosabati va insoniy fazilatlarni ulug‘lashi bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

Alisher Navoiy "Nazmul Javohir" asarida to‘rt xalifani (Abu Bakr Siddiq, Umar Faruq, Usmon Zunnurayn, Ali al-Murtazo) ruboiylar orqali madh etib, har birining fazilatlarini maxsus tarzda tasvirlaydi. Har bir xalifani ta’riflaydigan sifatlar, ularning islom jamiyatidagi o‘rni va xususiyatlariga to‘liq mos keladi.

Kalit so‘zlar: ruboiy, inson kamoloti, axloqiy qarashlar, insoniy fazilatlar.

Navoiy asarlarini o‘rganish yosh avlodni ma’naviy barkamol qilib tarbiyalashda muhim o‘rin tutadi. Navoiy to‘rt xalifaning fazilatlarini ruboiyda ifodalab, ularning har birining o‘ziga xos yuksak fazilatlarini yoritgan. Har bir xalifa, o‘zining ijtimoiy, diniy va axloqiy xususiyatlari bilan islom jamiyatida muhim o‘rin tutgan va Navoiyning ruboiylaridagi tasvirlar orqali bu fazilatlar ajralib turadi. Navoiy bu fazilatlarni ulug‘lash orqali, nafaqat xalifalarning tarixdagi o‘rnini, balki islom jamiyatining mustahkam asoslarini ko‘rsatishni maqsad qilgan. Navoiy bu to‘rt xalifani musulmon jamiyatining asosiy tayanchi, "chahor devor" (to‘rt devor) sifatida ta’riflaydi va ularning fazilatlari orqali dunyoda tartib va adolat saqlanishini ta’kidlaydi.

Alisher Navoiyning "Nazm ul-javohir" ("Javohirlar tizmasi") asari uning so'nggi lirik to'plami bo'lib, hayotining so'nggi yillarida yozilgan. Bu asar Navoiyning shoirlik mahoratining cho'qqisi va uning hayotiy tajribalari, dunyoqarashi, falsafiy mushohadalarining yorqin ifodasi hisoblanadi.

Navoiy xalifalarning asosiy fazilatlarini yuksak tarzda ko'rsatadi, bu fazilatlar, bir tomondan, xalifalarning har birining o'ziga xos xususiyatlarini ifodalaydi, boshqa tomondan esa ularning islom jamiyatidagi muhim o'rinlarini ta'kidlaydi.

Avvalgini fazl durriga ummon bil,
Soniysini adl gavhariga kon bil,
Solisni hayo gulbuniga bo'ston bil,
Robi'ni valoyat badaniga jon bil.

Abu Bakr Siddiq – "fazl durrig'a ummon" (fazilatning durlari dengizi).

Umar Faruq – "adl gavhari" (adolat gavhari).

Usmon Zunnurayn – "hayo gulbuni" (hayo gulxoni).

Ali al-Murtazo – "valoyat badani" (valoyatning ruhi) deb ta'riflangan.

1. Abu Bakr Siddiq – "fazl durrig'a ummon" (fazilatning durlari dengizi)

Izoh: Abu Bakr Siddiq islom tarixida birinchi xalifa bo'lib, u Payg'ambar Muhammad (s.a.v.)ning birinchi va eng ishonchli sahobasidan biridir. "Fazilatning durlari dengizi" deb ta'riflanishi uning eng yuksak fazilatga ega ekanligini bildiradi. Abu Bakr Siddiq fazilat (yaxshi fazilatlar va imon)da mutlaq yetakchi bo'lib, u islom jamiyatining birinchi asoschisi sifatida eng muhim shaxsdir. Uning islomga bo'lgan sadoqati, Muhammad (s.a.v.)ning o'limidan keyin jamiyatni birlashtirishdagi roli, shuningdek, Qur'onni jamlashdagi faolligi bu fazilatni mustahkamlaydi.

Hazrati Abu Bakr Siddiq raziyallohu anhu Islom ummatining eng mashhur zotlaridan sanaladilar. "Abu Bakr" u zotning kunyalari bo'lib, ismlari Abdulloh bo'lgan. Otarining ismlari Usmon (kunyalari Abu Quhofa), onalariniki Ummul Xoyr. Ota-ona tomonidan sulolalari Murrada Rasululloh alayhissalomning sulolalari bilan birlashadi. Abu Bakr kunyasi bilan tanilgan bu buyuk zot ilk sakkiz musulmonning ham, Asharai mubashsharaning ham, Xulafoi roshidinning ham birinchisi bo'ldilar.

Hazrati Abu Bakr raziyallohu anhuning laqablari – **"Siddiq"** bo'lib, ushbu laqabni olishlariga Rasululloh sallallohu alayhi vasallamning har bir amallarini tasdiqlashga har doim shay turganlari, bundan tashqari Isro va Me'roj hodisasini hech qanday taraddudsiz, darhol tasdiqlaganlari sabab bo'lgan. Shu bilan birga, Abu Bakr Siddiq raziyallohu anhu doimo o'zlariga sodiqlik – rostgo'ylikni muhim asos deb bilganlar. Imon masalasida u kishida biror marta ikkilanish yoki sustkashlik sezilmagan. Shu va shunga o'xshash juda ko'p fazilatlar u kishining "Siddiq" degan laqabni olishlariga sabab bo'lgan.

Abu Bakr raziyallohu anhu erkaklardan birinchi musulmon bo'lgan zot edilar. Rasululloh sallallohu alayhi vasallam: **"Kimni Islomga da'vat qilgan bo'lsam, unda ikkilanish, taraddud va o'ylab turish hollari bo'ldi. Ammo Abu Bakr ibn Abu Quhofaga Islomga kirishini taklif qilganimda, taraddudlanmadi, o'ylab ham o'tirmadi"** – deganlar (Imom Bayhaqiy rivoyati).

Boshqa bir hadisi shariflarida Payg'ambarimiz alayhissalom: **"Ummatim ichida ummatim uchun eng mehriboni – Abu Bakrdir"**, – deya marhamat qilganlar (Imom Termiziy rivoyatlari).

Abu Bakr Siddiq raziyallohu anhu musulmon bo'lganlaridan boshlab, to Nabiyy sallallohu alayhi vasallam vafot etgunlaricha, har doim U Zot bilan birga bo'ldilar. Nabiyy sallallohu alayhi

vasallam bilan birga hijrat qilish asnosida U Zotning g‘ordagi hamrohlari bo‘ldilar. Hazrati Abu Bakr raziyallohu anhu bilan birga yo‘lga chiqqanlarida, ularning izlariga tushgan mushriklardan saqlanish uchun Makka chekkasidagi Savr tog‘ining bir g‘origa kirib yashirinadilar. Dushman izquvarlari g‘or og‘zigacha izlab keladilar. Lekin Allohning marhamati bilan g‘or og‘zi o‘rgimchak to‘rlari bilan o‘ralib qoladi. Buni ko‘rib, ular orqaga qaytib ketadilar. Abu Bakr Siddiq raziyallohu anhu g‘or og‘ziga kelib qolgan dushmanlar Rasulullohga ozor yetkazishadi, deb qattiq hayajonlanadilar. Shunda Rasuli Akram alayhissalom tasalli beradilar. Bu haqda Alloh taolo Qur‘oni karimda shunday marhamat qiladi, ya‘ni: **“Agar sizlar unga (Muhammadga) yordam qilmasangiz, Alloh (O‘zi) unga yordam qilgan. Qachonki, uni kofirlar ikki kishining biri sifatida (vatanidan) chiqarib yuborganlarida, ikkovlari g‘orda turib, (Muhammad) hamrohi (Abu Bakr)ga: «Tashvish chekma! Albatta, Alloh biz bilan birgadirl!» – degan edi. Shunda Alloh unga taskin (xotirjamlik) nozil etdi va sizlar ko‘rmagan lashkarlar bilan uni quvvatladi hamda kofir bo‘lganlar so‘zini tuban qildi. Allohning so‘zi esa, u yuksakdir. Alloh qudratli va hikmatli (zot)dir”** (Tavba surasi, 40-oyat).

2. Umar Faruq – "adl gavhari" (adolat gavhari)

Izoh: Umar Faruqning adolati haqida juda ko‘p ma‘lumotlar mavjud. U islom jamiyatida adolatni mustahkamlash va amalda tatbiq etishdagi jasorati bilan tanilgan. Umarni "adolat gavhari" deb atash, uning boshqaruvi ostida islomda adolatning eng yuqori darajaga erishganligini ko‘rsatadi. Umar Faruqni "Faruq" (haqqni botildan ajratadigan) deb atash ham uning adolati va haqqoniylikdagi o‘rni bilan bog‘liqdir.

Laqablari: uchta laqabi bo‘lib, ikkitasini Nabiy sollalohu alayhi va sallam qo‘yganlar. Birinchisi: “Abu Hafs” sherning bolasi degan ma‘noni anglatadi.

“Abu Hafs” deb qizi Hafsaga nisbatan aytilgan degan fikr ham bor. Ikkinchi laqabi “Foruq”. Nabiy sollalohu alayhi va sallam: “Sen Foruqsan, ya‘ni: Alloh sen orqali haq bilan botilning orasini ajratadi”, deya marhamat qilganlar. Uchinchi laqabi esa “mo‘minlar amiri”dir.

Umar ibn Xattob roziyallohu anhu baland bo‘yli bo‘lganidan, kelayotganini ko‘rgan odam uni otlq deb o‘ylardi. Mushaklari baquvvat, mo‘ylovi enli, o‘zi oq-sariqdan kelgan, chiroyli yuzli kishi bo‘lgan. Yurganida tez, shaxdam-shaxdam qadam tashlardi. O‘ktam ovozdagi gapirar, xayol bilan turgan odam tovushidan qo‘rqib ketishi mumkin edi. Bu uning odamlar orasidagi haybatidan darak beradi. Islomni qabul qilishidan ilgari Rasululloh sollalohu alayhi va sallam: **“Ey Alloh, Islomni Umar ibn Xattob yoki Amr ibn Hishom bilan quvvatla!”**, deb duo qilganlar.

Quraysh ayollari Payg‘ambarimiz sollalohu alayhi va sallamdan dinni o‘rganishayotgan edi. Gaplashayotgan vaqtlarida tovushlarini Nabiy sollalohu alayhi va sallamning ovozlariidan yuqori ko‘tarib yuborishdi. Shu payt hazrat Umar roziyallohu anhu eshik taqillatib qoldi. Uning ovozi eshitgach, ayollarning dami ichiga tushib, qo‘rqib ketishdi. Nabiy sollalohu alayhi va sallam esa kulib yubordilar. Hazrat Umar roziyallohu anhu ichkariga kirganida unga: “Bilasanmi, Umar, anavi ayollar mening huzurimda gaplashib o‘tirib, ovozlariini menikidan baland ko‘tarayotgan edilar. Sen kelishing bilan jim bo‘lib qoldilar, nafaslari ichiga tushib ketdi”, dedilar. Shunda Umar: “Ey Allohning rasuli, qo‘rqishlariga Siz haqliroqsiz”, dedi va ayollarga qarata: “Ey o‘z jonining dushmanlari, mendan qo‘rqasizlar-u, Allohning rasulidan qo‘rqmaysizlarmi?!” dedi. Ayollar unga javoban: “Axir sen qo‘polsan-da”, dedilar. Payg‘ambar (sollalohu alayhi va sallam) kulib yubordilar va: “Ey Umar, agar shayton senga yo‘lda duch kelib qolsa, o‘ziga boshqa yo‘l topib ketadi”, dedilar.

Umar roziyallohu anhu sahobalar ulug‘i va butun insoniyatga yaqqol namuna va o‘rnak bo‘lgan inson bo‘lganlar. U zot Payg‘ambar alayhissalomga u zotning risolatlarini ado qilishda

ulkan hissa qo‘shgan, qo‘shganda ham ixlos, shijoat, muhabbat ila xizmat qilgan sahoba. Haqni sevuvchi, nohaqni qattiq qoralovchi Foruq edilar. Hatto Rasululloh alayhissalom Umar roziyallohu anhuduning sha‘nlari to‘g‘risida **“Agar mendan so‘ng payg‘ambar bo‘lsa, albatta, Umar bo‘lar edi”**, deya e‘tirof etganla (Imom Qutribiyning tazkirasidan).

3. Usmon Zunnurayn – "hayo gulbuni" (hayo gulxoni)

Izoh: Usmon Zunnurayn "hayo gulbuni" deb ta‘riflanadi, chunki uning hayosi islomda juda ulug‘lanadi. Hazrati Usmon roziyallohu anhu o‘ta hayoli kishi edilar. Bunga Oisha onamiz roziyallohu anhodan rivoyat qilingan quyidagi voqea ham ochiq dalildir: “Bir kuni Rasululloh sallallohu alayhi vasallam mening uyimda yonboshlab yotgan edilar. Shu payt Abu Bakr roziyallohu anhu izn so‘radilar. U zotga izn berildi. U zot alayhissalom esa, haligi holatda hazrati Abu Bakr siddiq bilan gaplashdilar. So‘ngra Umar roziyallohu anhu izn so‘radilar. U zotga ham izn berildi. U zot alayhissalom yana haligi holatda hazrati Umar bilan ham gaplashdilar. So‘ngra Usmon roziyallohu anhu izn so‘radilar. U zot alayhissalom yonboshlagan holatlaridan o‘tirgan holatga o‘zgarib, kiyimlarini to‘g‘rilab, keyin hazrati Usmonni qabul qildilar. So‘ngra hazrati Usmon chiqib ketganlarida men: “Yo Rasululloh, hazrati Abu Bakr kirgan edi, holatingizni o‘zgartirmadingiz. So‘ngra hazrati Umar kirgan edi, holatingizni o‘zgartirmadingiz. Hazrati Usmon kirganda esa, o‘tirib, kiyimlaringizni to‘g‘riladingiz?!” dedim. Shunda Rasuli akram alayhissalom: **“Farishtalar hayo qiladigan odamdan men hayo qilmas ekanmanmi?!”** dedilar (Imom Muslim rivoyatlari). Usmon roziyallohu anhu Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning ikki qizlariga – oldin Ruqayyaga, u kishi roziyallohu anhuduning o‘limlaridan olti oy keyin Ummu Kulsum roziyallohu anhudun uylanganlar. Shuning uchun u kishi «Zunnurayn» Ikki nur sohibi degan nomni olganlar.

Rasuli akram alayhissalom qizlari Ummu Kulsumni Hazrati Usmon roziyallohu anhudun turmushga berayotganlarida: “Sizning bo‘lajak eringiz insonlar ichida bobongiz – Ibrohimga va otangiz Muhammadga eng o‘xshash kishidir”, – deganlar (Imom Hokim rivoyatlari).

Hazrati Usmonning ikki ajoyib sifatleri bor edi:

Hayo. Usmon roziyallohu anhu odamlarning eng hayolisi edilar. U kishi Muhammad sollallohu alayhi vasallam ummatleri ichidan chiqqan, oldida Allohning farishtalari ham hayo qilgan bir insondir. Hatto Nabiy sollallohu alayhi vasallam ham u kishidan hayo qilar va: **«Maloikalar xayo qilgan odamdan men qanday hayo qilmay»**, der edilar.

Saxovat. Qurayshda hazrati Usmondan ko‘ra saxovatliroq kishi yo‘q edi.

Usmon roziyallohu anhudun Alloh taolo tomonidan berilgan nodir sifatlardan yana biri cheksiz saxovat edi. U zot Islomga kirganlaridan boshlab, umrlarining oxirigacha har juma kuni Alloh taoloning roziligi uchun bir dona qulni ozod qilar va buni o‘zlariga vazifa qilib olgan edilar. Agar ozod qilgani qul topa olmasalar, keyin topib, bo‘lsa ham ozod etar edilar.

4. Ali al-Murtazo – "valoyat badani" (valoyatning ruhi)

Izoh: Ali al-Murtazo "valoyatning ruhi" deb ta‘riflanadi, chunki u valoyat (islom rahbarligi va diniy rahbarlik)ning mukammal ifodasi sifatida qabul qilingan. Ali, Muhammad (s.a.v.)ning eng yaqin qarindoshi va do‘sti sifatida, islomning siyosiy va diniy yetakchisi bo‘lib, valoyatning butun borligini, uning mohiyatini va yuksakligini namoyish etdi. Aliyning valoyati, uning ilm va adolatga bo‘lgan muhabbati, shuningdek, islomni himoya qilishdagi jasorati bilan bog‘liqdir. Hazrat Ali va uning maqomi. Navoiy Hazrat Ali haqida kengroq to‘xtalib, uni valoyatning markazi va "Asadulloh" (Allohning sheri) sifatida ulug‘laydi. U Ali bilan bog‘liq hikmatlarni “Nasr ul-laoliy”dan tarjima qilib, bu ulug‘ zotning maqomini oshkor qilgan.

Hazrati Ali ra yosh bolalar ichida islomni birinchi qabul qilgan shaxs bo‘lib, islom dinini yoyishda ko‘plab jasoratlar ko‘rsatgan. Xususan, Makka mushriklari Muhammad sa.v ni o‘ldirmoqchi bo‘lganlarida ul zotning to‘shaklariga yotib, mushriklarni chalg‘itib turadi. Bu jasorat Ali ra ni qanchalik mard va Muhammad s.a.v ga muhabbati baland inson bo‘lganligini ko‘rsatadi. Ba’zi mufasssirlar "Baqara" surasidagi: **"Odamlar orasida Allohning roziligini istab, jonini beradigani ham bor. Alloh bandalariga mehribon zotdir"** (Baqara, 207) oyati karima Ali ra haqida nozil bo‘lganligini ta’kidlashadi.

Rasululloh sollallohu alayhi vasallam Ali roziyallohu anhu haqlarida har bir musulmonning havasi keladigan juda ko‘plab maqtovlarni aytganlar:

- **“Sen dunyoda ham, oxiratda ham mening birodarimsan”;**
- **“Kim Aliga aziyat bersa, menga aziyat beribdi”;**
- **“Kim Alini yaxshi ko‘rsa, meni yaxshi ko‘ribdi, kim meni yaxshi ko‘rsa, Allohni yaxshi ko‘ribdi, kim Alini yomon ko‘rsa, meni yomon ko‘ribdi, kim meni yomon ko‘rsa, Allohni yomon ko‘ribdi”;**
- **“Ali Qur'on bilan, Qur'on Ali bilandir, ikkalalari to Havzga kelgunlaricha birlaridan ajramaydilar”;**
- **“Alining musulmonlar zimmasidagi haqqi otaning bolasidagi haqqi kabidir”.**

Xulosa sifatida, "Nazm ul-javohir" asari Alisher Navoiy ijodining eng muhim qismi sifatida o‘zbek adabiyotining durdonasi bo‘lib, unda insonning hayotiy tajribalari, dunyoqarashi va falsafiy mushohadalari yorqin aks etganligi turkiy til adabiyotini yanada go‘zal asarlar bilan boyitganligini e’tirof etish joiz. Asar o‘zbek tilining boyligini va go‘zalligini namoyish etadi va o‘quvchilarni yaxshilikka, adolatga, ilm olishga chaqiradi. "Nazm ul-javohir" asari bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan va o‘zbek adabiyotining merosi sifatida qadrlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Imom al Buxoriy. Sahihi Buxoriy. I jild. Hilol. -403b.
2. Navoiy Alisher. XV jildlik. XV jild. Nazm ul-javohir. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi Badiiy adabiyot nashriyoti, 1968.-520 b.
3. Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri.(Matn) tarjima va tavsir muallifi: Shayx Abdulaziz Mansur.-Toshkent:Sano-standard,2021.
4. www.ziyouz.com